

“ТА’ЛИМ”

*Tursunov Asilbek Hayrullayevich**Bo'lajak O'zjoku talabasi**e-mail: asilbek20050730@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bilim olishning muhimligi, uning ahamiyati va hozirgi vaqtda yurtimizda ta'limga berilayotgan e'tibor, va bu borada tashkil qilinayotgan islohotlar haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Ilim olishning foydalari, davlatimizda ta'limga berilgan e'tibor.

“Beshikdan to qabrgacha ilm izla”, bu bizning naqadar pur ma'no maqollarimizdan biri a nima dedingiz? - ilm bu ko'zga ko'rinmas, qo'l bilan ushlab bo'lmas eng qimmatbaho ilohiy tuhfalardan biri, faqat bu tuyg'uni olish uchun inson o'z ustida tinimis ravishda ishlab, mexnat qilishi kerak bo'ladi. Chunki tug'ma beriladigan ilm hammada ham bo'lavermaydi, bo'lgan taqdirda ham uni yana ham rivojlantirish kerak mening fikrimcha, hoh til o'rganish bo'lsin, hoh boshqa biron bir kasb - hunar bo'lsin buning barchasi ilim olish natijasida yuzaga keladi. Inson aqlan, va hattoki jismonan ham sog'lom voyaga yetib kamol topishi uchun albatta bilim olish zarur, buning ahamiyati hech shubhasiz juda katta. Bilimli inson bilan hammani yaqin bo'lgisi u bilan doim suhbat qurgisi, vaqt o'tkazgisi keladi, chunki ilimli inson har jabhada o'ziga ishongan, sog'lom fikrli kuchli xarizmaga ega to'g'ri yo'l ko'rsata oladigan bo'ladi. Buning barchasi ilmning natijasidir, bolaga yoshligidanoq ilim berib kelish kerak ekanligini ilm ulamo ustozlarimiz tomonidan bot – bot takrorlanadi. Chunki ular buning jamiyatda qay darajada nechog'li ahamiyatli ekanligini bilishadi, va dunyoviy ham diniy bilimlar olishga chorlashadi, undan tashqari hozir o'sib kelayotgan o'smir yoshlar o'zini har qanday holatda ham yoqotib qo'yib yomon yo'llarga kirib noto'g'ri qadam bosmagan, ildam qadamlar bilan to'g'ri yo'lida davom etishlikda katta turtki bo'ladi. Yurtimizda bu borada ta'limdagi bo'layotgan o'zgarishlarga razm salsak, amalga oshirilayotgan islohotlarning avvalo maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globalashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan, maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi. Shuningdek, bugun yirik shaharlarimizdan tortib chekka tumanlar, qishloq va ovullarimizda yangi – yangi zamonaviy bog'chalar barpo etilyapti. Qisqa vaqt, ya'ni to'rt yil ichida respublikamizda bog'chalar soni 3 barobar oshib, bog'cha yoshidagi bolalarni qamrab olish darajasi 28 foizdan 54 foizga yetgani ana shunday amaliy harakatlarimiz natijasidir. So'nggi besh yilda

maktab o'qituvchilarining oylik maoshi bir yarim barobar ko'paytirilganligi, davlat mukofotlari bilan taqdirlanayotgan ustozlar soni oshib borishi, o'qituvchi tayyorlaydigan hisobotlar, qog'ozbozliklar soni keskin kamaytirilganligini o'zi ham ta'limning bu bosqichida ulkan ijobiy o'zgarishlarga zamin bo'ldi. Islohotlar, o'zgarishlar natijasida respublika bo'yicha qariyb 15 ming nafar erkak o'qituvchi maktablarga qaytdi. Maktab ta'limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish, muallimlarga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom etmoqda. Undan tashqari yaqin – yaqinlargacha o'qituvchi – muallimlar, ayrim joylarda o'qituvchilar ham, to'rt oylab paxta yig'im – terimi, chopiq va yaganaga chiqarilgan, natijada o'qituvchi bir oyda o'rtacha 80 soat dars o'tishi kerak bo'lsa, to'rt oyda 320 soat yo'qotadigan vaziyat vujudga keldi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida mana shunday salbiy holatlarga chek qo'yildi.

Shu qilinayotgan ishlarga yarasha albatta o'qituvchilar ham o'z bilimlari ustida ishlab, berilayotgan bunday imkoniyatlarni suiste'mol qilmastan bundan to'g'ri foydalansalar albatta davlat ham ularni qadrlaydi. Chunki hozirgi paytta tan olish kerakki, o'zini o'qituvchi man deb maktablarga kelib faqat bolalarga tanbeh berish boshqa narsalarga chalg'ish bilan qimmatli va ortga qaytarib bo'lmas vaqtni o'tkazib yuborilganligiga ham guvoh bo'lganmiz o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashib bolalarni faqatgina bilimi ustida bosh qotirayotgan o'qituvchilar uchun hamisha har vaqt qo'limiz doim ko'ksimizda bo'ladi.